



MUSIQIY CHOLG'ULARNI YOSH AVLODGA MA'NAVIY OZUQA SIFATIDA SINGDIRISH TAMOYILLARI.

Saydaqulova Gulshona Odiljon qizi

Toshkent viloyati

Ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi

Xalq cholg'ulari ijrochiligi bo'limi

Oliy toifali o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19641873>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 14-aprel 2026 yil

Ma'qullandi: 16-aprel 2026 yil

Nashr qilindi: 18-aprel 2026 yil

KEYWORDS

musiqiy cholg'u, yosh avlod, ma'naviy tarbiya, milliy meros, estetik tarbiya, musiqa ta'limi, an'ana, ijrochilik.

ABSTRACT

Mazkur maqolada musiqiy cholg'ularning yosh avlod ma'naviy kamolotidagi o'rni, ularni ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etish tamoyillari hamda milliy cholg'u ijrochiligi orqali yoshlarning estetik didini shakllantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, musiqiy merosni asrab-avaylash va uni yoshlar ongiga singdirishning pedagogik asoslari ham tahlil qilinadi.

Bugungi globallashuv davrida yosh avlodning ma'naviy dunyosini boyitish birinchi o'ringa qo'yish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sababi zamonaviy axborot asri dunyo odamlariga ma'naviyatni targ'ib qilishdan ko'ra, salbiy g'oyalarni targ'ib etishayotgani biz pedagog ustozlarni sergaklikka chaqiradi. Nagaki biz san'at olami vakillari yosh avlodni ulg'ayishida to'g'ri tanlovlarni egallashida albatta yordam ko'nikmalarini berishimiz zarurdir. Yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri hisoblanmoqda. Bu jarayonda san'atning, ayniqsa musiqa san'atining o'rni nihoyatda muhimdir. Musiqa inson qalbiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan, uning ruhiy holatini shakllantiradigan san'at turidir.

O'zbek xalqining boy musiqiy merosi asrlar davomida shakllanib, xalqning turmush tarzi, urf-odatlar va ma'naviy dunyosini o'zida aks ettirib kelmoqda.

Azaldan "Beshikdan to qabrgacha ilm izla" maqolini ota bobolarimiz o'z yashash tarzlarida qo'llab kelganlar. Shu jumalarni san'at hamda ilm olish tamoyili bog'lasak:

O'zbek an'alarida ilm va san'at bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Bu tamoyilni hayotning turli bosqichlarida qo'llash mumkin:

Bolalik davrida, ona allalarini eshitib ulg'ayish, milliy kuylar orqali bolada musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirish va ruhiy tinchlik boyitishni singdirdik. Milliy o'zbek ertaklari, maqollari orqali axloqiy tarbiyani shakllantirdik. Bolalarni milliy kuy qo'shiqlar bilan oziqlantirgan holda, cholg'ular bilan tanishtirish hamda ularning san'atga qiziqishini oshirdik.

O'smirlik davrida, maktablarda musiqa, kuylash, ijro etish kabi fanlar orqali milliy san'atni o'rgatdik. Milliy bayramlarda (Navro'z, Mustaqillik bayrami) sahna ko'rinishlari, qo'shiqlar orqali qadriyatlarni targ'ib qildik. O'quvchilarni ansambl va ashula jamoalariga jalb qildik.

Yoshlik va yetuklik davrida milliy san'at orqali vatanparvarlik va milliy g'ururni mustahkamlab konsertlar, festival va ko'rik-tanlovlarda ishtirok etish orqali ijodiy salohiyatni rivojlantirish.

Bundan tashqari san'at orqali jamiyatga ma'naviy xizmat qilish, hayot tajribasi bosqichida katta avlod yoshlarni milliy qadriyatlar va san'atga o'rgatadi.

Ustoz-shogird an'anasi orqali ilm va san'at davomiyligi ta'minlanib boriladi.

Qadriyatlarni qo'llash usullari

Ma'naviyatni shakllantirishda o'zbek qadriyatlarini quyidagi usullar orqali qo'llash mumkin:

Ta'lim jarayonida – darslarda milliy musiqa, maqom, xalq qo'shiqlari va cholg'ularni o'rgatish.

Madaniy tadbirlarda – milliy bayramlar, konsertlar, ko'rik-tanlovlar orqali qadriyatlarni targ'ib qilish.

Ustoz-shogird tizimi orqali – san'atkorlar yosh avlodga o'z tajribasini o'rgatishi.

Oilada tarbiya orqali – ota-ona bolaga milliy urf-odat va san'atni tanishtirishi.

Zamonaviy texnologiyalar orqali – internet, videodarslar va media orqali milliy san'atni keng targ'ib qilish.

Yakuniy fikr o'rnida ma'naviyatni shakllantirishda o'zbek qadriyatlari muhim poydevor hisoblanadi. "Beshikdan to qabrgacha ilm" tamoyili esa insonni doimiy ravishda bilim va san'atga intilishga undaydi. Milliy qadriyatlar, ilm va san'at uyg'unlashganda jamiyatda ma'naviy barkamol, madaniyatli va vatanparvar avlod voyaga yetadi. Ayniqsa milliy musiqiy cholg'ular – dutor, tanbur, chang, rubob, gijjak, nay kabi cholg'ular xalqimiz madaniyatining ajralmas qismidir.

Yosh avlodni ana shu boy musiqiy meros asosida tarbiyalash ularning estetik didini shakllantiradi, milliy o'zlikni anglashga yordam beradi va ma'naviy kamolotiga xizmat qiladi. Shu sababli musiqiy cholg'ularni yoshlar ongiga singdirish pedagogik va madaniy jihatdan muhim masalalardan biridir.

Musiqiy cholg'ularning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni

Musiqa insonning ichki dunyosiga ta'sir etuvchi kuchli vositalardan biridir. Ayniqsa cholg'u musiqa insonning tasavvurini kengaytiradi, ruhiy holatini muvozanatga keltiradi va estetik didini rivojlantiradi.

Yosh avlodni musiqiy cholg'ular bilan tanishtirish quyidagi jihatlar orqali ularning ma'naviy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi: milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantiradi; estetik did va san'atga qiziqishni oshiradi; ijodiy fikrlashni rivojlantiradi; sabr-toqat va intizomni tarbiyalaydi.

Musiqa bilan shug'ullangan yoshlar odatda ijodkor, sezgir va madaniyatli bo'lib voyaga yetadi. Cholg'u ijrochiligi esa ularda mehnatsevarlik va mas'uliyat tuyg'usini shakllantiradi.

Musiqiy cholg'ularni yosh avlodga singdirishning pedagogik tamoyillari

Musiqiy cholg'ularni yoshlar ongiga singdirishda bir qator pedagogik tamoyillarga amal qilish muhimdir.

1. Milliylik tamoyili

Ta'lim jarayonida milliy musiqiy merosga alohida e'tibor qaratish zarur. Yoshlar avvalo o'z xalqining musiqiy merosini o'rganishi kerak. Bu esa ularda milliy o'zlikni anglash hissini kuchaytiradi.

2. Bosqichma-bosqich o'qitish tamoyili

Cholg'u ijrochiligini o'rgatishda yoshlarning yosh xususiyatlarini hisobga olish muhim. Avval oddiy kuylar, keyin murakkab asarlar o'rgatilishi samarali natija beradi.

3. Amaliy mashg'ulotlarga ustuvorlik berish

Musiqqa ta'limida nazariya bilan birga amaliy mashg'ulotlar ham muhim o'rin tutadi. O'quvchilar cholg'uni nafaqat tinglab, balki ijro etib ham o'rganishlari kerak.

4. Estetik tarbiya tamoyili

Cholg'u ijrochiligi orqali yoshlarning estetik didini shakllantirish mumkin. Bu esa ularning san'atni chuqurroq tushunishiga yordam beradi.

Milliy musiqiy cholg'ularning tarbiyaviy ahamiyati

O'zbek xalq cholg'ulari nafaqat musiqiy asbob, balki xalq tarixining bir qismi hisoblanadi. Har bir cholg'u o'ziga xos ovoz va ijro uslubiga ega.

Masalan:

Dutor – lirizm va nafislikni ifodalaydi.

Shu o'rinda hikmatli iborani qo'llashni lozim topdim.

“Dutor torini chertgan odam avval yuragini sozlaydi.”

Ma'nosi: Bu ibora shuni anglatadiki, haqiqiy sozanda yoki inson avvalo qalbini poklab, niyatini to'g'rilab, keyin ish boshlashi kerak. Dutor chalish faqat musiqqa emas, balki ruhiy tarbiya ham hisoblangan.

Xalq orasidagi ibora

“Dutor torida xalqning dardi ham, quvonchi ham yashaydi.”

Ma'nosi: Dutor orqali insonlar quvonchini ham, dardini ham kuyga solib ifoda etgan. Shuning uchun dutor xalq ruhiyatining bir qismi hisoblangan.

Tanbur – mumtoz musiqqa ijrochiligida muhim o'rin tutadi.

“Tanbur torida sabr, sozida hikmat yashaydi.”

Ma'nosi: Tanbur chalishni o'rganish oson emas. U sabr, mehnat va ustoz hurmatini talab qiladi. Shuning uchun bu ibora yoshlarni mehnatsevarlik va sabr-toqatga undaydi.

Chang – murakkab va boy tovush imkoniyatlariga ega.

Tarbiyaviy rivoyat: Qadim zamonda bir yosh shogird chang chalishni o'rganmoqchi bo'lib ustoziga kelibdi.

Ustoz undan so'rabdi: — Chang chalishni o'rganish uchun eng avvalo nima kerak deb o'ylaysan?

Shogird: — Tez chalishni o'rganish kerak, — debdi.

Ustoz kulib aytibdi: — Yo'q, changni tez chalish emas, avval uning ovozi tinglashni o'rgan. Chunki changni eshitgan odamgina uni chala oladi.

Xulosa: Bu rivoyat inson har qanday san'atni o'rganishda diqqat, sabr va his qilish muhim ekanligini bildiradi.

G'ijjak – chuqur va ta'sirli ohanglari bilan ajralib turadi.

G'ijjak — Sharq xalqlarining qadimiy kamonli cholg'ularidan biri bo'lib, uning ovozi inson ovozigacha o'xshash, dardli va chuqur deb tasvirlanadi. Shu sababli xalq og'zaki ijodida g'ijjak ko'pincha qalb tuyg'ulari, sabr va ma'naviyat bilan bog'lanadi.

Hikmatli ibora: **“G'ijjak yig'lasa, qalb ham so'zlaydi.”**

Ma'nosi: G'ijjakning ovozi inson qalbidagi his-tuyg'ularni uyg'otadi. Bu ibora san'at inson ruhiyatini tarbiyalaydi degan ma'noni bildiradi.

Shunday qilib ushbu cholg'ular orqali yoshlar milliy musiqa an'analari bilan tanishadi, o'zlariga ma'naviy ozuqalar berib borishadi va o'z madaniyatiga hurmat bilan qarashni o'rganadi. Bunda ta'lim olish jarayonida keng qamrovli metodlardan foydalangan holda yangi innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj sezadilar.

Musiqa ta'limida innovatsion yondashuvlar qanday qo'llanilishi mumkin:

Bugungi kunda musiqiy ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Quyidagi usullar samarali hisoblanadi: *interaktiv darslar; audio va video materiallardan foydalanish; ansambl va orkestr mashg'ulotlari;*

sahna chiqishlari va konsertlar tashkil etish demakdir. Bunday usullar yoshlarning musiqa san'atiga qiziqishini yanada oshiradi va ularning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. Albatta bu metod usullarni samarali qo'llashni o'rtish bugungi pedagoglar qo'lidir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, musiqiy cholg'ular yosh avlod ma'naviy kamolotida muhim o'rin tutadi. Milliy cholg'u ijrochiligini yoshlar orasida keng targ'ib qilish ularning estetik didini shakllantiradi, milliy madaniyatga hurmat ruhida tarbiyalaydi va ma'naviy dunyosini boyitadi.

Shu sababli musiqa ta'limi tizimida milliy cholg'u ijrochiligini rivojlantirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish hamda yoshlarni san'atga keng jalb qilish muhim vazifalardan biridir..

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, 2008.
- 2.Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti.
- 3.Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent.
- 4.Matyoqubov O. O'zbek xalq musiqasi madaniyati. Toshkent, 2004.
- 5.Jabborov A. O'zbek xalq musiqasi ijodi. Toshkent, 2005.
- 6.Ismoilov T. Musiqa pedagogikasi asoslari. Toshkent, 2010.
- 7.Sultonov B. Musiqa ta'limi metodikasi. Toshkent, 2012.
- 8.Rahimov M. O'zbek xalq cholg'ulari tarixi. Toshkent, 2015